

ANTROPONIM KOMPONENTLI PAREMIYALARNING SEMANTIK VA LINGVOMADANIY TAHLILI (O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARI MATERIALLARI ASOSIDA)

Aliyeva Gulzoda Tulqinovna,

Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek va fransuz tillaridagi antroponim komponentli paremiyalarning semantik, lingvomadaniy hamda konseptual xususiyatlari qiyosiy aspektida tadqiq etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi tarkibida antroponimlar ishtirok etgan paremik birliklarning ma'no strukturasi, ularning shakllanish omillarini hamda milliy-madaniy mazmunini aniqlashdan iborat. Maqolada antroponimlarning paremiya tarkibidagi nominativ, aksiologik, pragmatik va lingvomadaniy funksiyalari tahlil qilinadi hamda ularning xalq tafakkuri, tarixiy xotira va milliy konseptlar bilan aloqadorligi yoritiladi. Tadqiqot davomida qiyosiy-tipologik, semantik tahlil, kontekstual interpretatsiya va lingvomadaniy yondashuv metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, antroponim komponentli paremiyalar tarkibida shaxs nomlari o'zining birlamchi referensial funksiyasidan chiqib, umumlashgan madaniy kod, axloqiy baholash vositasi va kollektiv tajriba modeli sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek va fransuz paremik fondining qiyosiy tahlili asosida tarixiy xotira, diniy tasavvurlar, stereotiplash va milliy konseptlarning shakllanishida antroponimlarning alohida o'rin tutishi aniqlandi. Mazkur tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, onomastika, paremiologiya hamda lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishlarida olib boriladigan keyingi izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Kalit so'zlar: antroponim, paremiya, maqol, lingvomadaniyat, semantika, onomastika, antroponimika, konsept, milliy mentalitet, qiyosiy tilshunoslik, paremiologiya.

Аннотация. В данной статье в сравнительном аспекте исследуются семантические, лингвокультурные и концептуальные особенности паремиологических единиц с антропонимическим компонентом в узбекском и французском языках. Основная цель исследования заключается в выявлении смысловой структуры паремий с антропонимами, факторов их формирования, а также их национально-культурного содержания. В работе анализируются номинативные, аксиологические, прагматические и лингвокультурные функции антропонимов в составе паремий, а также их связь с народным мышлением, исторической памятью и национальными концептами. В ходе исследования использованы методы сравнительно-типологического анализа, семантического анализа, контекстуальной интерпретации и лингвокультурологического подхода. Результаты показали, что в составе паремиологических единиц с антропонимическим компонентом имена собственные выходят за пределы своей первичной референциальной функции и выступают как обобщённый культурный код, средство моральной оценки и модель коллективного опыта. Сравнительный анализ узбекского и французского паремиологического фонда выявил особую роль антропонимов в формировании исторической памяти, религиозных представлений, стереотипов и национальных концептов. Результаты данного исследования могут служить теоретической и практической основой для дальнейших работ в области сравнительной лингвистики, ономастики, паремиологии и лингвокультурологии.

Ключевые слова: антропоним, паремия, пословица, лингвокультурология, семантика, ономастика, антропонимика, концепт, национальный менталитет, сравнительная лингвистика, паремиология.

Abstract. This article examines the semantic, linguocultural, and conceptual features of paremiological units containing anthroponymic components in Uzbek and French from a comparative perspective. The main aim of the study is to identify the semantic structure of proverbs with anthroponyms, the factors of their formation, and their national-cultural content. The paper analyzes the nominative, axiological, pragmatic, and linguocultural functions of anthroponyms within paremias, as

well as their connection with folk thinking, historical memory, and national concepts. The study employs comparative-typological analysis, semantic analysis, contextual interpretation, and a linguocultural approach. The results show that in paremiological units with anthroponymic components, proper names go beyond their primary referential function and act as a generalized cultural code, a means of moral evaluation, and a model of collective experience. A comparative analysis of Uzbek and French paremiological corpora reveals the significant role of anthroponyms in the formation of historical memory, religious perceptions, stereotypes, and national concepts. The findings of this research may serve as a theoretical and practical basis for further studies in comparative linguistics, onomastics, paremiology, and linguoculturology.

Keywords: *anthroponym, paremia, proverb, linguoculturology, semantics, onomastics, anthroponymics, concept, national mentality, comparative linguistics, paremiology.*

Kirish. XX- XXI asrlar tilshunosligining rivojlanish tendensiyalari tilni faqat struktur birliklar tizimi sifatida emas, balki inson tafakkuri, madaniy tajribasi va ijtimoiy munosabatlari bilan uzviy bog‘liq murakkab fenomen sifatida talqin qilishga olib keldi. Shu asosda antropotsentrik paradigma shakllandi va til birliklarini inson omili bilan bog‘liq holda tadqiq etish zamonaviy lingvistik izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Antropotsentrik yondashuvga ko‘ra, til insonning dunyoni idrok etish usuli, madaniy tajribasi va konseptual tafakkurining verbal ifodasi hisoblanadi. Shu sababli bugungi tilshunoslikda tilning turli qatlamlarini lingvomadaniy, kognitiv va pragmatik nuqtai nazardan o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda.

Tilning xalq madaniyati va tarixiy xotirasini saqlovchi birliklari ichida paremiyalar alohida ilmiy ahamiyatga ega. Paremiyalar - maqollar, matallar, hikmatli iboralar va boshqa ixcham folklor birliklarini qamrab olib, xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, ijtimoiy qarashlari va axloqiy me‘yorlarini mujassamlashtiradi. Paremiyalar tarkibidagi antroponimlar esa alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Chunki shaxs nomlari bunday birliklar tarkibida faqat identifikatsion vazifani bajarmaydi; aksincha, ular muayyan madaniy mazmun, baholash munosabati yoki stereotipik tasavvurni ifodalovchi semantik marker sifatida namoyon bo‘ladi.

Antroponimlar til tizimida nominativ birlik sifatida shaxsni identifikatsiya qiluvchi vosita bo‘lsa-da, paremik kontekstda ular semantik transformatsiyaga uchraydi. Natijada konkret shaxs nomi umumlashgan obraz, ijtimoiy tip yoki kollektiv baholash modeliga aylanadi. Masalan, ayrim paremiyalarda tarixiy yoki diniy shaxs nomlari donolik, jasorat, kibr, adolat yoki fidoyilik kabi konseptlarning ifodachisi bo‘lib xizmat qiladi. Shu tariqa antroponimlar xalqning konseptual olami va madaniy stereotiplarini kodlash vositasiga aylanadi.

O‘zbek va fransuz tillarining paremik tizimini qiyosiy o‘rganish alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi. Chunki mazkur tillar turli tarixiy-madaniy makonlarda shakllangan bo‘lsa-da, ular tarkibidagi antroponim komponentli paremiyalar orqali inson, jamiyat va axloq haqidagi universal hamda milliy tasavvurlar namoyon bo‘ladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi antroponim komponentli paremiyalarning semantik va lingvomadaniy tabiatini

qiyosiy tahlil qilish, shuningdek, ularda aks etuvchi milliy konseptlar va madaniy kodlarni aniqlash zarurati bilan belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili. Antroponimika jahon tilshunosligida onomastikaning muhim tarkibiy sohasi sifatida shakllangan bo‘lib, shaxs nomlarining kelib chiqishi, semantikasi va funksional xususiyatlarini tadqiq etadi. Antroponimlarning nazariy asoslari rus onomastika maktabi vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. Xususan, A.V. Superanskaya atoqli otlarning lingvistik tabiatini izohlab, ularning til tizimidagi semantik va kommunikativ o‘rnini aniqlagan. Olimning tadqiqotlarida antroponimlar faqat nominativ birlik emas, balki madaniy axborot tashuvchi element sifatida ham baholanadi.

N.V. Podolskaya onomastik terminologiyani tizimlashtirib, antroponimik birliklarni tavsiflashning ilmiy apparatini ishlab chiqdi. V.A. Nikonov esa antroponimlarning tarixiy rivojlanishi hamda ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligini yoritdi.

O‘zbek tilshunosligida E.A. Begmatov tomonidan antroponimlarning semantik va sotsiolingvistik xususiyatlari tizimli ravishda tadqiq etildi. Olim o‘zbek nomlash tizimini tarixiy va lingvistik jihatdan tavsiflab berdi. Paremiyalarni lingvomadaniy yo‘nalishda tadqiq qilishda G.L. Permyakov, V.N. Teliya va V.A. Maslova qarashlari muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularning konsepsiyalariga ko‘ra, paremiya xalqning kollektiv xotirasi va madaniy tajribasining ixcham verbal modeli hisoblanadi.

Shunga qaramay, antroponim komponentli paremiyalarning aynan qiyosiy-lingvomadaniy aspektidagi tadqiqi, ayniqsa o‘zbek va fransuz tillari materiallari asosida olib borilgan izlanishlar hozircha yetarli darajada yoritilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotning metodologik negizini antropotsentrik paradigma, lingvomadaniyatshunoslik, paremiologik tahlil va qiyosiy-semantik yondashuv tashkil etadi. Antroponim komponentli paremiyalarni tahlil qilishda shaxs nomining faqat referensial emas, balki konseptual va madaniy funksiyasi ham inobatga olinadi. Paremiya tarkibidagi antroponim real shaxs nomi sifatida emas, balki kollektiv ong tomonidan qayta interpretatsiya qilingan madaniy obraz sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Paremik tizimda antroponimlar quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- 1. Identifikatsion funksiya** - tarixiy yoki mifologik obrazlarni aktualizatsiya qilish.
- 2. Aksiologik funksiya** - ijobiy yoki salbiy baholashni ifodalash.
- 3. Konseptual funksiya** - xalq tafakkuridagi tayanch konseptlarni verbalizatsiya qilish.
- 4. Lingvomadaniy funksiya** - milliy madaniyat kodlarini uzatish.
- 5. Pragmatik funksiya** - kommunikativ ta’sir va nutqiy ekspressivlikni kuchaytirish.

Tahlillar va natijalar. Shunday qilib, antroponim komponentli paremiyalar til va madaniyat kesishgan nuqtada shakllanuvchi murakkab semantik struktura bo‘lib, ularning tadqiqi milliy tafakkur va lingvistik konseptosferani anglash imkonini beradi. Maqolada o‘zbek va fransuz tillaridagi antroponim komponentli paremiyalarning semantik hamda lingvomadaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektida o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, unda

kompleks metodologik yondashuv asos qilib olindi. Tadqiqotning nazariy va amaliy ishonchliligini ta'minlash maqsadida zamonaviy tilshunoslikda keng qo'llaniladigan qiyosiy-tipologik, tavsifiy, semantik, lingvomadaniy, interpretativ va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Qiyosiy-tipologik metod tadqiqotning yetakchi usuli sifatida tanlanib, u orqali o'zbek va fransuz tillarida antroponim ishtirok etgan paremik birliklarning strukturaviy, semantik hamda funksional o'xshash va farqli jihatlari aniqlashtirildi. Mazkur metod turli lingvomadaniy makonlarga mansub tillardagi paremik modellarning shakllanish qonuniyatlarini aniqlash hamda antroponimlarning ma'no hosil qilishdagi ishtirokini tavsiflash imkonini berdi. Semantik tahlil yordamida antroponimlarning paremiya tarkibidagi nominativ ma'nodan ramziy va konseptual ma'noga o'tish jarayoni o'rganildi. Xususan, shaxs nomining bevosita referensial vazifadan uzoqlashib, umumlashgan baholovchi birlik yoki madaniy kod sifatida faoliyat ko'rsatish mexanizmlari tahlil qilindi. Lingvomadaniy yondashuv esa paremiyalar tarkibida aks etuvchi tarixiy tajriba, diniy qarashlar, milliy qadriyatlar tizimi va kollektiv ong elementlarini aniqlashga qaratildi. Ushbu metod asosida antroponimlarning xalqning madaniy xotirasini saqlash va avlodlararo uzatishdagi roli yoritildi.

Interpretativ tahlil orqali esa paremik birliklarning ichki semantik strukturasi ochish, ularda yashiringan konseptual mazmuni rekonstruksiya qilish hamda pragmatik yo'nalishni aniqlash amalga oshirildi. Tadqiqotning empirik bazasini o'zbek xalq maqollari va matallari to'plamlari, fransuz paremiologik lug'atlari, antroponimika va lingvomadaniyatshunoslikka oid ilmiy monografiyalar hamda onomastik tadqiqotlar tashkil etdi.

Paremiyalar tarkibida qo'llangan antroponimlarning semantik tabiati ularning oddiy nominativ birlik sifatidagi funksiyasidan ancha murakkab va ko'p qatlamli ekanligini ko'rsatadi. Paremiya tarkibida shaxs nomi ko'pincha konkret individni nomlash vazifasidan chekinib, ijtimoiy tajriba, axloqiy me'yor, madaniy stereotip yoki konseptual modelni ifodalovchi semantik konstruksiyaga aylanadi. Shu jihatdan antroponim komponentli paremiyalarni o'rganishda antroponimning denotativ ma'nosi bilan bir qatorda uning konnotativ, aksiologik va pragmatik yuklamalarini ham hisobga olish zarur. Tahlillar natijasida antroponim komponentli paremiyalar quyidagi semantik guruhlarga ajratildi.

Mazkur guruhdagi paremiyalarda antroponim tarixiy shaxsning bevosita identifikatori emas, balki kollektiv tarixiy tajribani umumlashtiruvchi lingvomadaniy belgi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan: *Rendre à César ce qui appartient à César-Sezarning haqqini Sezarga qaytarish.*

Mazkur paremiya Injil matniga borib taqaladi va unda adolat, huquqiylik hamda ijtimoiy tartib konseptlari ifodalanadi. Ushbu birlik tarkibidagi *César* antroponimi konkret tarixiy shaxs maqomidan chiqib, hokimiyat, siyosiy legitimlik va ijtimoiy mas'uliyat timsoliga aylangan.

O‘zbek paremik tizimida ham tarixiy obrazlar umumlashgan baholovchi semantika hosil qiladi. *Sulton suyganini el suymas*. Mazkur birlikda “sulton” komponenti individual hukmdorni emas, balki hokimiyat instituti va jamoaviy munosabatlar o‘rtasidagi ijtimoiy qarama-qarshilikni ifodalaydi. Paremiya mazmunida xalq irodasi va siyosiy ustunlik o‘rtasidagi tafovut konseptuallashtirilgan.

Diniy antroponimlar paremik tizimda muqaddaslik, axloqiy me‘yor va kollektiv e‘tiqodning til orqali ifodalanish vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. *Quand Saint Vincent est clair et beau, il y a du vin comme de l’eau ushbu* paremiya fransuz xalqining agrar madaniyati va katolik diniy qarashlari bilan bog‘liq. Bu yerda *Saint Vincent* obrazi hosildorlik, baraka va tabiatning siklik uyg‘unligi konseptlarini ifodalovchi madaniy timsol sifatida talqin qilinadi.

O‘zbek paremiyalarida diniy antroponimlar ko‘proq antropogenez, ma‘naviy birlik va insoniy tenglik g‘oyalari bilan bog‘lanadi. *Odam bolasi - Odam Atodan* bu paremiya diniy dunyoqarash asosida insoniyatning yagona manbadan kelib chiqishini ifodalaydi hamda ijtimoiy tenglik, insoniy mushtaraklik va umumiy kelib chiqish konseptlarini aktuallashtiradi.

Mazkur guruhdagi paremiyalarda antroponim individuallikdan umumlashuv tomon semantik siljishni boshdan kechiradi va tipik xarakter modeli vazifasini bajaradi. *Jean qui rit et Jean qui pleure*. Ushbu paremiya inson xarakterining o‘zgaruvchanligi va emotsional nomutanosibligini ifodalaydi. Bu yerda *Jean* fransuz lingvomadaniyatida umumlashgan inson obrazi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek paremiyalarida ham ayrim antroponimlar ijtimoiy stereotiplashuv asosida semantik transformatsiyaga uchraydi. *Har Ahmadning gapiga ishonma*. Ushbu birlikdagi “Ahmad” antroponimi konkret shaxs emas, balki ehtiyotkorlik va tanqidiy munosabatni ifodalovchi umumlashgan ijtimoiy model hisoblanadi.

Lingvomadaniy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, antroponim komponentli paremiyalar xalqning tarixiy xotirasi, qadriyatlar tizimi va kollektiv ongini verbal shaklda ifodalovchi murakkab madaniy birliklardir.

Paremik tizimda antroponimlar quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

Tarixiy-reprezentativ funksiya-Tarixiy shaxslar va voqealar haqidagi ijtimoiy tajribani til orqali avlodlarga uzatadi.

Aksiologik funksiya-Jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy mezon va baholash modellarini shakllantiradi.

Konseptual funksiya-Adolat, taqdir, mehnat, e‘tiqod, hokimiyat kabi tayanch konseptlarning verbal ifodasini ta‘minlaydi.

Identifikatsion funksiya-Milliy madaniyat va kollektiv identitetni saqlash hamda mustahkamlash vositasi sifatida xizmat qiladi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, har ikki til paremik tizimida antroponimlar faol semantik birlik sifatida namoyon bo'lsa-da, ularning lingvomadaniy motivatsiyasi turlicha shakllangan.

Tahlil mezonlari	O'zbek tili	Fransuz tili
Dominant antroponim turi	diniy, maishiy	tarixiy, diniy
Yetakchi semantik model	axloqiy baholash	tarixiy-metaforik
Asosiy konsept	odob, taqdir, jamoaviylik	adolat, individuallik
Lingvomadaniy asos	kollektiv ong	individual tarixiy tajriba

Xulosa. Umuman olganda, qiyosiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek paremik tizimida antroponimlar asosan jamoaviy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi lingvomadaniy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Fransuz paremik fondida esa antroponimlar ko'proq tarixiy xotira, individual tajriba va ramziy-majoziy tafakkurni verbalizatsiya qiluvchi semantik birliklar sifatida qo'llanadi. Mazkur tafovutlar har ikki xalqning milliy dunyoqarashi, qadriyatlar tizimi hamda konseptual olamining shakllanishida til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, antroponim komponentli paremiyalar turli lingvomadaniy makonlarda inson, jamiyat va tarix haqidagi tasavvurlarning til vositasida konseptuallashuv mexanizmlarini ochib beruvchi muhim paremiologik birliklar sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begmatov E. A. O'zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
2. Begmatov E. A. O'zbek ismlari ma'nosi. – Toshkent: O'zME, 1998.
3. Begmatov E. A. Nomlar va odamlar. – Toshkent: Fan, 1966.
4. Kenjayeva S. E. O'zbek antroponimlarining semantik va sotsiolingvistik tadqiqi. – Toshkent, 2011. (PhD avtoreferat)
5. Baxronova D. Antropozoomorfizmlarning semantik va lingvokulturologik xususiyatlari (o'zbek va ispan tillari materialida). – PhD diss., 2017.
6. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. – Toshkent: Fan, (zamonaviy nashrlar).
7. Superanskaya A. V. Teoriya imeni sobstvennogo. – Moskva: Nauka, 1973.
8. Nikonov V. A. Имя и общество. – Москва: Наука, 1974.
9. Podolskaya N. V. Словарь русской ономастической терминологии. – Москва: Nauka, 1988.
10. Teliya V. N. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1996.
11. Permyakov G. L. Основы структурной паремиологии. – Москва: Наука, 1988.
12. Maslova V. A. Лингвокультурология. – Москва: Academia, 2001.
13. Dauzat A. Dictionnaire étymologique des noms de famille et prénoms de France. – Paris: Larousse, 1980.
14. Morlet M.-T. Les noms de personne sur le territoire français. – Paris: CNRS, 1991.
15. Сувонова Н., Алиева Г. Ўзбек халқ мақолларини француз тилига таржима қилишнинг миллий хусусиятлари. Scientific-methodological electronic journal “Foreign Languages in Uzbekistan”, 2020, No 3(32), 192–205 <https://journal.fledu.uz>